

This is not registered version of TotalDocConverter

Xohammi o'z yigitini, us versiyasining o'z yam namam hind oq yetib turuvdi, yana chet tili qo'shildi frantsuzcha. Ona tilimizdan farqi shuki, shahardan to'rtta o'zbekcha so'zni yodlab kelgan bo'yanchoq o'qituvchimiz: "Maktab tamom, hamma dalaga!" desa, biz: "Bonjur, madam, bonjur!" deymiz.

"Farang ayamiz" beshinchi sinfgacha amallab chidadi bir yoqdan qishloqda yashash azobi, ikkinchi yoqdan u yuz xil savol beradi-yu, javob o'sha-o'sha: "Bonjur, madam, bonjur". Oxiri kelgan joyiga qarab qochvordi.

Oltinchi sinfda inglizcha o'rgatadiganni topib kelishib, tag'in bizga tiqishtirishdi. "Bunisining joni harqalay qirqta emasdir-ov, ko'ramiz-da", degan edik, xuddi aytganimiz bo'ldi. Ammo, shundayam tinchimadik yettinchida hindchani, sakkizinchida xitoychani "shudgorlash"ga urinib ko'rdik. Buning ustiga matematika bor deng. Menga qolsa, hatto geometriyayu trigonometriyani ham chet tili hisobiga qo'shvorardim. Masalan, qovoqcho'mich yunonchada nima deyilishini bilasizmi? Bilmaysiz!

"Kotangens"ni-chi, turkiyga ag'darib aytish qo'lingizdan keladimi? Kelmaydi! Demak, ikkalasiyam bir go'r.

To'qqizinchi sinfda chet tili o'qituvchisi topilmay, ancha yengil tortib yurdik. Lekin bir kuni...

Bir kuni Xomit-jarchi sinfga uchib kirib, "nemis keldi, nemis keldi", deb shovqin soldi. Tomoshaga chiqib "ob'ekt"ni o'rab oldik, u hayron. Sochini sip-silliq tarab, yalmani o'rtadan ochganini hisobga olmaganda, turqida nemisning "n" harfi yo'q, juda nari borsa, o'zimizning ozarbayjondir.

Abdulla-elim uning atrofida surlanganicha aylanib chiqqach, kinodagilarga o'xshatib: "Aufshteyn!" deb qichqirgan edi, nemis uni o'zbekchalab so'kdi. So'ng menga o'qrayib, yana tilimizda do'q urdi:

Nega menga baqrayasan?

Nemismisiz axir? deb so'radim.

O'zbekman, ahmoqlar, dedi u, sizlarga nemischadan dars beraman.

Shu kuyi nemischani tatalashga tushdik. Ikki oy o'tib-o'tmay markazdan komissiya kelib, chet tilini qanday o'zlashtirayotganimizni tekshirdi. Barvasta bir ayol "pish-pish"lab turib, bexos savol tashladi:

Qani, bolalar, kim javob qiladi, "men darsni yaxshi bilaman", degani nemischada qanday aytiladi?

Noma'lum askar qabri ustida turgandek jimib ketdik. "Bir minut sukut saqlash" nihoyasiga yetgach, komissiya opa oldingi qatorda o'tirgan Rahim-po'mpaga barmoq niqtadi:

Sen ayt.

Xende xox! deb do'rilladi Rahim-po'mpa.

Komissiya opaning qoshi qanot yoyib, kipriklari pilpillay boshladi:

Xende xox, bu "qo'lingni ko'tar", degani shekilli?

Menam shuni aytyapman-da, dedi Rahim-po'mpa. Darsni yaxshi bilganlar doim qo'lini ko'taradi.

"Nemis akamiz" ham o'quv yili tugaguncha zo'rg'a tishini tishga bosib yurdi. O'ninchi sinfda butunlay chet tilisiz qoldik.

Maktabning bosh go'laxi bo'lgan Qori tog'a ahvolimizga o'zicha achinib, goh direktor, goh o'rinbosarning yo'lini to'sar, "keling, shu kambag'allarga o'zim arabiyini o'rgatay, odam bo'lishsin", deb tiqilinch qilardi.

Qori tog'a bekorga bezovta bo'lmaganini universitetga kelib bildim attestatimda chet tilidan baho yo'qligi uchun hujjatlarimni qabul qilishmadi, xorijiy til (qaysi tilligini aniq ko'rsatib o'tirmadim) bo'yicha mustaqil tayyorlanganman, deb rektor nomiga ariza yozganimdan keyingina, kirish imtihonlarini topshirishimga ruxsat berishdi.

Inshoyu tarixdan bir nav o'tib oldim, gal chet tiliga keldi. Xorijiy tillardan imtihon qabul qilinayotgan qavatga chiqsam, o'n to'rtta xonada o'n to'rt xil lisondan sinov ketayotgan ekan. Har qaysi eshik oldida guruh-guruh "umidvor"lar tizilib turibdi. Har bir guruhning ortidan erinmay navbat olib chiqdim. Bittasi menga angrayganicha boqib, "qilig'ingizga tushunolmay turibmiz", degan edi, "menga baribir", deb qo'yaqoldim.

O'n to'rtta tilni yoppa biladilarmi? deb so'radi u battardan xayratlanib.

Aksincha, dedim men, bittasiniyam bilmayman.

Nihoyat eshiklardan biriga oldinroq navbatim yetdi. Bu xonada ispanchadan imtihon olinayotgan ekan, tavakkaliga kirib bordim.

Ichimda bismilloni aytib, bilek sug'urdim. Bu orada o'qituvchi nimadir degan edi, yana tavakkal qilib, "rahmat, domla, ishlarim yomonmas", dedim. Domla aynan o'sha g'o'ldirashini takrorladi. Bu safar gapning oqimini o'zgartirib, "Farg'onadanman", deb ko'rdim.

Familiyangni so'rayapman, dedi u o'zbekchalab.

Familiyam Gulmatov.

Ispancha ayt!

Ispanchadayam, forschadayam, yaponchadayam Gulmatov, dedim.

Domla xoxolab kuldi.

Kayfiyatim ochilganidan foydalanib qol, dehqonvachcha, deya muruvvat va'da qildi u. Bittagina ispancha so'z topib aytolsang, shartta "uch" qo'yvoraman.

Birdan qaddimni rostladim. O'ng qo'limni panshaxaning chetki ilgagiga o'xshatib yuqoriga ko'tardim-da, qattiq musht tugib: "Rot front!" deb baqirdim...

E, afsus, ming afsus, mehribonlarim meni odam qatoriga qo'shish uchun ko'pdan-ko'p pullarni sovurishdi, har xil tillarni o'rgatmoqchi bo'lishdi, ularning ta'biri bilan aytganda, noshudlik qildim, bundan baribir ish chiqmadi. Qaytaga, kallamda boriyam chalkashib ketdi. Endi hammasini yig'ishtirib qo'yib, odmigina bo'lsa ham, o'zimga qulayrog'ini yaxshilab o'rganmoqchiman ya'ni o'zbekchani.